

## **IZOHLI LUG‘ATLARDA DIALEKTIZMLARNING KLASSİFİKATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALASI**

*Nasiba Raimnazarova*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

### **THE ISSUE OF IMPROVING THE CLASSIFICATION OF DIALECTISMS IN EXPLANATORY DICTIONARIES**

*Nasiba Raimnazarova*

*Termez State Pedagogical Institute*

*Senior Lecturer, Doctor of Philosophy in Philology*

### **ВОПРОС СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КЛАССИФИКАЦИИ ДИАЛЕКТИЗМОВ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ**

*Насиба Раимназарова*

*Термезский государственный педагогический институт  
старший преподаватель, доктор философии по филологии*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada izohli lug‘atlarda dialektizmlarning klassifikatsiyasini takomillashtirish masalasi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqola davomida mavjud tillarning shakllanishi va taraqqiyotiga ham to‘xtalib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *izohli lug‘atlar, dialektizmlarning klassifikatsiyasini takomillashtirish, tillarning shakllanishi.*

**Abstract:** This article discusses the issue of improving the classification of dialectisms in explanatory dictionaries. The article also touches upon the formation and development of existing languages.

**Key words:** explanatory dictionaries, improving the classification of dialectisms, the formation of languages.

**Аннотация:** В статье рассматривается проблема совершенствования классификации диалектизмов в толковых словарях. Также в статье было затронуто становление и развитие существующих языков.

**Ключевые слова:** толковые словари, совершенствование классификации диалектизмов, формирование языков.

Jamiyatda mavjud tillarning shakllanishi bir necha omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ma’lum bir tilning keng omma nutqida qo‘llanib, rivojlanishi shu tilning taraqqiyot yo‘lida bosib o‘tgan turli xil murakkab bosqichlarning mahsuli hisoblanadi.

Qayd etish joizki, adabiy tillar haqiqatdan ham tobora taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun juda ham zarur edi. Chunki bir mamlakatning o‘zida ham bir necha lahjalarda so‘zlashuvchi etnik guruhlar mavjud. Ular bir-birlarini yetarlicha anglashlari uchun yagona adabiy til kerak edi. Adabiy tillar aloqa vositali sifatida mamlakat ichida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Adabiy tillarni

shakllantirishda muayyan mamlakatda yashovchi millatlar tillari o‘rganiladi va davlat ish yurituvida imkoniyatlari yuqori bo‘lgan, omma orasida tushunilish darajasi yuksak bo‘lgan til olinadi. Adabiy til esa o‘lkada mavjud dialektlar hisobiga boyitilib boriladi. Bu tendensiya bugungi kunda ham keng amalda bo‘lib, adabiy tillar dialektlar, shevalar hisobiga boyib bormoqda. Xususan, o‘zbek tili ham ichki va tashqi omillar hisobiga yuksalmoqda. Ichki manba sifatida shevalar qaralib, mamlakat ichida qo‘llanuvchi dialektlar leksik unsurlarining adabiy tilga olinishi nazarda tutiladi.



e-mail:

[raimnazarova2021@mail.ru](mailto:raimnazarova2021@mail.ru)

<https://orcid.org/0009-0003-4600-2986>

Tillarning taraqqiy etishi natijasida shu tillarning leksik birliklarini o‘zida mujassamlashtirgan, ularning ma’nolarini tavsiflab keluvchi lug‘atlar shakllana boshladi. Ushbu lug‘atlarga adabiy tilda qo‘llanuvchi leksik birliklar qamrab olinib, qo‘llanish imkoniyatlari yoritiladi. Shu bilan birga, shevalardan olingan, shevalarda qo‘llanuvchi so‘zlar ham kiritiladi. Xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” shakllantirilgan bo‘lib, unda o‘zbek adabiy tilida qo‘llanuvchi leksemalar qamrab olingan. Biz tadqiqotimizga bog‘liq ravishda yuqoridaq boblarda o‘zbek adabiy tilining shevalarga munosabati, izohli lug‘atlarda sheva unsurlarining aks ettirilishi masalalariga e’tibor qaratdik. Ushbu qismda mavjud izohli lug‘atlardagi shevaga oid so‘zlar tavsiflarini takomillashtirish va kiritilishi kerak bo‘lgan terminlar masalasiga e’tibor qaratmoqchimiz.

Avvalo, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan so‘zlar tavsifiga nazar solsak. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ma’lum bir so‘z keltirilib, leksemaning tavsifi berilar ekan, uning bir necha jamiyat sohalariga, qismlariga tegishli bo‘lgan, ularda qo‘llaniluvchi ma’nolari keltiriladi. Xususan, muayyan bir shevaga oid leksema keltirilar ekan, so‘z, adabiy tilda mos keluvchi leksema yoki so‘z brikmasi hamda shu so‘z ishtirok etgan jumla keltiriladi.

**“BEJOY [be.. + joy] 1** Joyi yo‘q, joysiz, makonsiz.

**2** shv. Noto‘g‘ri, noo‘rin. *Podshoning otiga bejoy minibsiz, jondan kechib, ajab ishni qilibsiz.* «Rustamxon». *Bejoy qilding, ona, holim bilmading, Ilgaridan nega xabar bermading.* “Rustamxon”<sup>1</sup>.

Bejoy leksemasining ikki xil ma’nosи keltirilib, shu so‘z ishtirok etgan jumla berilmoqda. 1-ma’no: makonsizlik, 2-noo‘rin qilingan ish yoki gapirilgan gap.

**“BENGZAMOQ** shv. O‘xshatmoq, qiyos qilmoq; birovning timsolida kimnidir ko‘rmoq. *Onama bengzadim jamoling sani.* «Qo‘sishqlar»<sup>2</sup>.

Bengzamoq so‘zi o‘zbek adabiy tilida mengzamoq shaklida mavjud bo‘lib, sheva so‘zi sifatida keltirilgan shakl izohida berilgan ma’nolarni ifodalarydi.

Demak, adabiy tilda mavjud va shevalarda fonetik o‘zgarishlarga uchragan, ma’lum bir dialektda qo‘llanuvchi birliklar ham lug‘at tarkibiga kiritilgan. Bizningcha, mengzamoq leksemasi izohida shevalardagi bengazamoq shakli ifodalanim ketilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

**“GASHIR** shv. Sabzi. *Mana, Shavkatga gashir to‘g‘ratamiz.* S. Siyoev, Yorug‘lik<sup>3</sup>. Bu o‘rinda sabzi leksemasining dialektik shakli gashir keltirilib, asardan misol berilmoqda. Bizningcha, sof shevaga xos leksema lug‘atda ifodalangach, unga shu leksema faol qo‘llanadigan shevadan namunalar keltirish maqsadga muvofiq.

**“GUVALAK** shv. Guvala. *Uning [Anzirat xolaning] hovlisi odam bo‘yi kelar-kelmas guvalak devor bilan o‘ralgan.* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. *Guvalak uy, bostirma ayvon Shundoq ko‘cha bo‘yida erdi.* M. Ali, Boqiy dunyo<sup>4</sup>. Bu o‘rinda ham guvalak leksemasining izohi keltirilib, unga badiiy asardan namuna berilmoqda. Bizningcha, bu o‘rinda bengzamoq va gashir leksemasi izohida keltirganimiz jihatlarga yondashish maqsadga muvofiq.

Yuqoridaq jihatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shevaga oid leksemalarni berishda

1. So‘z;
2. Adabiy tildagi ifodasi(so‘z yoki brikma shaklda);
3. So‘zning shevaga oid misoli(badiiy asar yoki jurnal, gazetadan)

Berish tartibiga rioya qilingan. Ayrim o‘rnlarda bu tartib o‘zgarishga yuz tutgan hollar ham uchraydi. Ya’ni faqatgina leksemaning ma’nosи berilishi bilan cheklanilgan o‘rinlar ham mavjud:

**“GULA II** shv. Nusxa; o‘rnak, andaza<sup>5</sup>.

**“GULGAY** shv. Oyoq kaftining do‘ng yeri<sup>6</sup>.

Bu kabi namunalardan kelib chiqib “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shevaga oid so‘zlarining berilishi jihatidan lug‘atning bir necha yutuqlarini qayd etish mumkin:

1. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga sheva so‘zlarining o‘sha davr uchun yetarli qismi qamrab olingani;

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилди. – Тошкент: ЎзМЭДавлатилмийнашриёти, 2006. – Б. 208.

<sup>2</sup> Ko‘rsatilgan manba – B. 228.

<sup>3</sup> Ko‘rsatilgan manba – B. 491.

<sup>4</sup> Ko‘rsatilgan manba. – B. 514.

<sup>5</sup> Ko‘rsatilgan manba – B. 517.

<sup>6</sup> Ko‘rsatilgan manba – B. 517.

2. Sheva leksemalarning berilishida adabiy tildagi ko‘rinishi keltirilganligi;

3. Har bir namunaga mos badiiy asardan sheva so‘zi ishtirok etgan misollar keltirilib dalillanganligi;

4. Ilk bor o‘zbek sheva leksemalarining izohli leksikografik talqin qilinganligi.

Davr o‘tishi bilan har qanday tilning leksik qatlamida o‘zgarishlar, yangilanishlar sodir bo‘ladi. Bu, avvalambor, so‘zlashuv jarayonida namoyon bo‘lsa, asta-sekin lug‘atlarda ham aks etadi. Xususan, o‘zbek tilining ham leksik sastavida bugungi kunga kelib o‘zgarishlar, yangilanishlar sodir bo‘lmoqda. Bu esa lug‘atlarda ham aks etmoqda. Shu bilan bir qatorda yuqorida qayd etganimizdek, shevalar hisobiga o‘zbek tili imkoniyatlarini oshirishimiz, izohli lug‘atlarda ularni aks ettirishimiz, dialektik leksemalarning leksikografik talqinlariga jiddiy e’tibor qaratishimiz lozim. Biz tadqiqotimiz davomida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dan tashqari bir nechta lug‘atlarni kuzatdik. Ularda qator shevaga oid leksemalar adabiy tildagi leksema semasi bilan izohlangan yoki adabiy tildagi leksema dialektal ma’no bilan berilgan hollarga guvoh bo‘ldik. Shulardan kelib chiqib, shevaga oid leksemalar tavsifini takomillashtirish zarurati mavjud ekanligini ta’kidlamoqchimiz. Izohli lug‘atlardagi dialektal leksemalar tavsifini lingvistik va dialektologik yondashuvlar asosida takomillashtirish kelgusida dialektal leksemalarning qo‘llanish imkoniyatini oshishiga, leksikografik talqinlarning mukammallashishiga xizmat qiladi.

Biz “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi dialektal so‘zлarni kuzatish jarayonida shunga amin bo‘ldikki, leksemalar izohini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da leksemalarni berishda quyidagi jihatlar aks ettirilmagan: dialektal so‘z transkripsiysi; leksemaning shevadagi ma’nodoshlari; leksemalarning dialektal fonetik o‘zgarishlardagi variatsiyasi; leksemaning fonetik o‘zgarishlardagi variatsiyalari izohi; leksemaning funksional imkoniyatlari; so‘zning qo‘llanish chegarasi; leksema qatnashgan dialektal namuna.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da yuqoridagi jihatlar aks ettirilishi darkor. Shunda leksema mazmun mundarijasi yetarlicha namoyon bo‘ladi. Bu jihatlar sheva so‘zlarining barchasiga birdek

tegishli bo‘lmasligi mumkin. Ammo ularning mohiyatidan kelib chiqib, keltirilgan mezonlar aks ettirilsa, lug‘atning qiymati yanada oshadi. Shuningdek, adabiy tilda mavjud leksemalarning shevalarda mavjud, ma’nosи hamohang bo‘lgan, qisman o‘zgarishga uchraganlarini shu so‘z izohida shevalardagi variatsiyalari shaklida berish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dialektal so‘zлarni izohli lug‘atlarda aks ettirishda quyidagi mezonlarga tayanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: Dialektal so‘z; Dialektal so‘z transkripsiysi; Dialektal so‘zning adabiy tildagi sinonimi; Dialektal leksemaning shevadagi ma’nodoshlari; Leksemalarning dialektal fonetik o‘zgarishlardagi variatsiyasi; Leksemaning fonetik o‘zgarishlardagi variatsiyalari izohi; Leksemaning funksional imkoniyatlari; So‘zning qo‘llanish chegarasi; Leksema qatnashgan dialektal namuna(transkripsiyada); Leksema qatnashgan dialektal misolning adabiy tildagi izohi.

Endi o‘zbek dialektlarida mavjud, izohli lug‘atlarda aks ettirilishi lozim bo‘lgan leksemalar, ularning xususiyatlariga e’tiborimizni qaratsak.

Jamiyatda borliqdagi mavjud narsalar, voqe-hodisalar, muayyan tushunchalarni inson ongida namoyon bo‘lishi uning nomlanishi bilan bog‘liq holda aks ettiriladi. Bu qonuniyat qadimdan shu tartibda shakllangan bo‘lsada, hozirgi kunga kelib bu jihat yanada yuqori ahamiyat kasb etmoqda. Chunki hozirda anglashilishi lozim bo‘igan tushunchalarning miqdori kengayib, kishilar tafakkurida saqlanishi lozim bo‘lgan tafakkuriy birliklar qamrovi oshib bormoqda. Ularning lisoniy birliklarda ifodalanishi esa yanada yuksak dolzarblik kasb etmoqda. Bu jihatlarni sheva so‘zлari hisobiga boyitish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

#### Foydalilanilgan abdiyotlar:

1. Collins English Dictionary. Accessed on 1 November 2019. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english>
2. The Oxford guide to practical lexicography. Oxford, New York: Oxford University Press. 2008.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1- жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 208.